

## **Hafta davomida 107 nafar fuqaro bilan muloqot o'tkazildi.**

28-31 avgust kunlari Jamg‘armaning murojaatlar bo‘limiga ishonch telefon (99 353 93 54, 94 353 93 54)lari orqali 107 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 3(2,8%)tasi og‘zaki e’tirozli murojaatlardan iborat.

Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘lijni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma, jamg‘arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan e’tirozli murojaatlari bo‘ldi.

Misol uchun, Namangan shahrida yashovchi fuqaroning farzandi imtiyozli yo‘llanma bilan Bolalar milliy tibbiyat markazida davolanish davrida davolanish sifatidan norozi bo‘lib e’tirozli og‘zaki murojaat qilgan bo‘lsa, Qibray tumanida yashovchi fuqaro AMERICAN HOSPITAL nodavlat tibbiyat muassasasi imtiyozli yo‘llanma bilan qabul qilinmagani, Boyovut tumani tibbiyat birlashmasi qo‘riqlash xizmatida ishlayotgan fuqaro olti oydan buyon o‘zlarini ish haqlarini olmayotganligi yuzasidan tashkilot manziliga e’tirozli og‘zaki murojaat qilib keldi.

Barcha fuqarolar murojaati yuzasidan tegishliligi bo‘yicha mas’ullarga ma’lumotlari berildi e’tirozli og‘zaki murojaatlar o‘z vaqtida ijobiy hal qilindi.

Surxondaryo, Farg‘ona viloyatlarida va Toshkent shahrida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg‘arma ishonch telefoniga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga hamda xududiy bo‘linmaga berildi. Og‘zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatildi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi  
jamg‘armasi Matbuot xizmati**